

PAPER

MA'NAVIYAT –MILLIY YUKSALISH POYDEVORI

Z.Boytemirova^{1, *} and M. Usmonova²

¹Qo'qon DU Falsafa fanlari nomzodi and ²Qo'qon DU magistranti

*boytemirova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillikdan keyin milliy-ma'naviy yuksalish jarayonlari va shu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda keng ko'lamli islohotlar xususida bahs yuritiladi. Ma'naviyat milliy yuksalish poydevori — bu jamiyatning madaniy va axloqiy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan jarayonlarni ifodalaydi. Bu tushuncha, asosan, o'z xalqining tarixi, an'analari, adabiyoti va san'atiga asoslangan bo'lib, millatning o'ziga xosligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat tarixga hurmat, balki kelajakka ichonch bilan qarashdir. Shuning uchun har bir xalq o'z milliy ma'naviatini rivojlantirib borishi zarur.

Key words: milliy yuksalish, ma'naviy rivojlanish, ma'naviy tarbiya, milliy tiklanish, o'zlikni anglash, qadriyatlar, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik.

Kirish

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi o'tgan davr ichida mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lganidek, milliy-ma'naviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, millatimizning o'zligini anglash jarayonlari, o'z milliy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, milliy urf-odatlar, an'analari, qadriyatlarimizni tiklash va muqaddas dinimizning ulkan imkoniyatlaridan bahramand bo'lish borasida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Ma'naviyat –insonning, xalqning kuch qudratidir". Haqiqatdan ham ma'naviyat inson va jamiyat uchun juda muhimdir. Ma'naviyat, insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari, madaniyati va etika tamoyillaridan iborat bo'lib, u insonning ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qiladi. Xalqning kuch-qudrati ko'pincha ma'naviyatga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida keng qamrovli islohotlar olib borilayotganligiga barchamiz guvohmiz. Qolaversa, yoshlar ta'lim-tarbiyasida, ilm-fanni zamon talablariga mos rivojlantirish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Jumladan, ma'naviyat sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Milliy o'zligimizni anglash, milliy, ma'naviy-ruhiy tiklanish, chekkadan qaraganda "oddiy va soddagina" tuyulsa-da, real hayotda juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u milliy negilizimning kelib chiqmasligi va mamlakatimizda ko'p millatlar istiqomat qilishi kabi o'ta murakkab muammolar bilan

bog'liqdir. Shuningdek, milliy taraqqiyotga nisbatan sobiq sho'rolar hukmronligi davridagi qotib qolgan qarashlardan tezroq qutilish va o'zbeklarning «menligini» qaror toptirishdek masalalar mavjudligini ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki bu muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq.

Milliy o'zligimizni anglash, milliy, ma'naviy-ruhiy tiklanish, chekkadan qaraganda "oddiy va soddagina" tuyulsa-da, real hayotda juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u milliy negilizimning kelib chiqmasligi va mamlakatimizda ko'p millatlar istiqomat qilishi kabi o'ta murakkab muammolar bilan bog'liqdir. Shuningdek, milliy taraqqiyotga nisbatan sobiq sho'rolar hukmronligi davridagi qotib qolgan qarashlardan tezroq qutilish va o'zbeklarning «menligini» qaror toptirishdek masalalar mavjudligini ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Mustaqilligimizni mustahkamlash va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish jarayonida milliy, ma'naviy-ruhiy tiklanishimiz borasida olib boriladigan barcha ilmiy, tarbiyaviy va tashkiliy ishlarimiz ana shu konseptual g'oyalar asosiga yo'naltirilgandagina kutilgan natijalarni berishi mumkin bo'ladi. Ana shu ma'noda ham millatning o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish, chuqur tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqishga ehtiyoj oshib bormoqda. Bu murakkab vazifani amalga oshirish uchun esa turli sohalar olimlarining yakkidillik bilan faoliyat ko'rsatishi zarurdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutloqo yo'l qo'yilmaydi".

Davlatimiz rahbarining "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir" degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi Hazrat Navoiy da'vatlariga mohiyatan uyg'un bo'lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azmu shijaot bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma'naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi qarorda ta'kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasini solish uchun tinimsiz chiranib yotgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo'lga qo'yish, bu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taradi. Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona tizim yaratiladi. Ana shu asosda, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylantiriladi. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimi joriy qilinadi. El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ma'naviyat, uning asosi bo'lgan yuksak axloq, ruhiy poklik, qalban uyg'oqlik, bedor vijdon, mustahkam iymon bahor nafasiga o'xshaydi. U shakllanib, rivojlanib borarkan, o'z yo'lida qancha gullash fasllarini ko'rди, ayozlarning ta'qibu tahdidlarini boshdan o'tkazdi. Uning faraxbash nafasi ta'siri qanchalar mavjud bo'lsa, afsuski unga qarshi sovuq yellar ham shunchalar mavjuddir. Shu bois ham u hamisha, har bir davrda bu sinovu tahdidlardan kuchli bo'lib, qudratga to'lib o'tadi. Negaki, unga davru davronlarga uyg'onish baxsh etuvchi sohibdillar ezgu amallari birla quvvat baxsh etadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent - «O'zbekiston» - 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston. 2022.

3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
4. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. 1997.
5. Qahharova M.M Ma'naviy idal va jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhiti. Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (1), PP30-36 , 22 May, 2021.